Shuningdek ushbu qaror bilan 2011 yilning 1 avgust kunidan boshlab respublikaning barcha shahar va tumanlaridagi Obodonlashtirish boshqarmalari huzurida 3 kishi tarkibida «Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish» brigadalari tuzilgan. Brigada vazifasiga ko‘chalarda va boshqa joylarda qarovsiz qolgan, shu jumladan egasiz itlar, mushuklar va yirtgich hayvonlarni tutishni takshil etish, shuninegdek ularni maxsus barpo etilgan joyda vaqtincha saqlashni tashkil qiladi.

Shu bilan birga  ushbu qaror bilan Ichki ishlar vazirligiga:

- aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash qoidalariga rioya qilish yuzasidan nazoratni kuchaytirish hamda ushbu qoidalarn buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarni javobgarlikga tortish bo‘yicha ta'sirchan chora-tadbirlarko‘rish;

- davlat veterinariya taqdimnomasi bo‘yicha qarovsiz qolgan, shu jumladan egasiz va kasal hayvonlarni quturish joylarida quturish kasalligi ko‘p uchrashi xavfi bo‘lgan epizootik hududlarda otib tashlashni tashkil etishi belgilangan.

Ushbu qarorda belgilanganidek, Respublika Sog‘liqni Saqlash vazirligi tomonidan aholi o‘rtasida hayvonlar tishlab olganda va boshqa jarohatlar yetgazganda darhol sog‘liqni saqlash muassasalariga murojaat qilishi to‘g‘risida tushintirish ishlarini olib byuorish, jabrlanganlar murojaat qilgan tag‘dirda quturishga qarshi vaksinatsiyani, tezkorlik bilan o‘tkazish, quturish xavfi ta'sirida bo‘lgan aholi guruhini (qarovsiz qolgan xayvonlarni tutish bo‘limlari, o‘rmon xo‘jaligi xodimlari hamda ixtisoslash-tirilgan ovchilik brigadalarining ovchilarini) muntazam ravishda vaksinatsiya qilish, fuqarolar uchun antirabik vaksinatsiyalarning zarur zahirasi-ni yaratish belgilangan.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASI**

# QUTURISHDAN SAQLANING



**Nukus shahri- 2021 yil**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyuldagi “Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog‘liq xizmatlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 202-sonli Qarori ishlab chiqilgan. Ushbu qarorda uylarda saqlanayotgan it va mushuklarni saqlash tartiblari belgilangan.

Bular sanitariya-gigiyena va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish itlar va mushuklarni saqlashning majburiy sharti hisoblanadi.

Barcha itlar, zarur hollarda esa ular bilan birga saqlanadigan boshqa qutirishga moyil hayvonlar ham uni qullash bo‘yicha yo‘riqnomada nazarda tutilgan tartibda quturishga qarshi emlash vaksinasi bilan profilaktika qilinishi shart.

Ko‘p qavatli o‘yning alohida kvartirasida qo‘shnilarning va xususiy o‘y joy mulklari shirkatining roziligi bilan bittadin ortiq bo‘lmagan itni va bitta mushukni saqlashga ruhsat beriladi.

Alohida uyda itlarni saqlashga faqat bog‘langan holda, erkin sayir qildirishda – atrofii o‘ralgan hududda ajratilgan holda saqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Itlar ochiq joylarda sayir qildirilganda va tura rjoy binolarida itlarning egalari tinchlik saqlanishini ta'minlashlari – ertalab soat 8.00gacha va kechqurin 22.00 dan keyin itlarning vovillashining oldini olishlari kerak.

Itlar va mushuklarni umumiy foydalaniladigan joylarda: - zinapoya maydonchalari, cherdaklar, yertulalarda, shuningdek oshxonalar, balkonlar va umumfoydalanishdagi peshayvonlarda saqlash;

- qo‘riqchi itlarni ta'lim va tibbiyot muassasalarida;
- itlar va mushuklarni umumiy ovqatlanish korxonalariga, oziq-ovqat do‘konlari va boshqa do‘konlarning savdo va ishlab chiqarish zallariga olib kirish;
- itlar va mushuklarni ko‘pchilik boradigan joylarda (plyaj, hovuz, favvoralarda va hokazolarda) cho‘miltirish yoki yuvish;
- mast holatdagi shaxslar va 14 yoshdan kichik bolalarning itlarni sayr qildirishi;
- itlar bilan jamoat joylarida bo‘lish va jamoat transportiga chiqish taqiqlanadi;
- oldini olish mumkin bo‘lgan itlar va mushuklarning o‘lishiga yoki jarohatlanishga olib kelgan itlar va mushuklarni talab ketish, ularga jarohat yetkazish, ularni qarovsiz holda qoldirish, ularga ozor berish yoki jismoniy va ma'naviy azob berish, ularga nisbatan boshqa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan harakatlarni sodir etish;
- kasal itlar va mushuklarni hayvonlar jaratib qo‘yiladigan maxsus xizmatlarga topshirish;
- itlar o‘lgan taqdirda davlat veterinariya bo‘limiga, yashash joydagi fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlariga xabar berish hamda o‘lgan itning jasadini tashlab yubormaslik, uni itni ruyxatga olish guvohnomasini ilova qilgan xolda shahar (tuman) obodonlashtirish boshqarmasi xuzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo‘limiga topshirish kerak.